| Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oilaviy korxonalarining xizmatlar ko'rsatish sohasidagi o'rni va funksiyalari .....                         | 1026 |
| <b>Tog'ayeva Dilnoza Azamatovna</b>  |      |
| Совершенствование методологии исследования демографических процессов .....   | 1031 |
| <b>Тула Нодирбек Баходир угли</b>  |      |
| Инновационные технологии в сфере страхования.....  | 1037 |
| <b>Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи</b>   |      |
| Iqtisodiyotni innovatsion isloh qilish sharoitida yer hisobini yuritishning ahamiyati.....   | 1042 |
| <b>Hojiyev Qo'chqor Mamadiyorovich</b>   |      |
| Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish .....           | 1047 |
| <b>Sherqulov Nodir Erkin o'g'li</b>  |      |
| Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении .....   | 1052 |
| <b>Гулноза Тохировна Самиева</b>   |      |
| Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari .....  | 1057 |
| <b>Majidov Nizomjon</b>  |      |
| Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari .....  | 1064 |
| <b>Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna</b>  |      |
| Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....  | 1070 |
| <b>Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li</b>  |      |
| Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati .....   | 1075 |
| <b>Badalov Jamshid Jamolovich</b>  |      |
| Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....  | 1080 |
| <b>Shirinov Sabir Erkinovich</b>   |      |
| O'zbekistonda davlat korxonalarini aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari .....                                      | 1084 |
| <b>Anvar Eshmatov</b>  |      |
| Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari .....   | 1088 |
| <b>Ametova Nasiba Danilovna</b>  |      |
| Tijorat banklari tomonidan ekspertyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish .....   | 1092 |
| <b>Bayjanova Gozsal Sarsengaliyevna</b>  |      |
| Digital Transformation of Tax Systems.....   | 1096 |
| <b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>  |      |
| Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....   | 1101 |
| <b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>   |      |
| Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan .....  | 1106 |
| <b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>   |      |
| Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....  | 1112 |
| <b>Yuldashov Elmurod Abduljalil o'g'li</b>   |      |
| Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана .....   | 1116 |
| <b>Икромова Ханифа Одилевна</b>  |      |
| Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....  | 1121 |
| <b>Kamalova Jamila</b>   |      |
| O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari .....                                      | 1125 |
| <b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>   |      |
| Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi ..... | 1131 |
| <b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>  |      |
| Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития .....  | 1136 |
| <b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>  |      |
| Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....  | 1143 |
| <b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>  |      |
| Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....  | 1146 |
| <b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>  |      |
| Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....                                   | 1151 |
| <b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>  |      |
| Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....  | 1158 |
| <b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>   |      |
| The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities .....                                    | 1163 |
| <b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>   |      |



|   |      |
|---|------|
| Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....          | 1168 |
| <b>Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich</b>  |      |
| O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....  | 1174 |
| <b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>   |      |
| Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....                                     | 1181 |
| <b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>  |      |
| O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....   | 1185 |
| <b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>   |      |
| O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....   | 1191 |
| <b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>   |      |
| Islom iqtisodiyotining mohiyati.....  | 1197 |
| <b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>   |      |
| Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi ..... | 1201 |
| <b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>  |      |
| Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....    | 1207 |
| <b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>   |      |
| Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....   | 1212 |
| <b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>   |      |
| Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....   | 1218 |
| <b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>  |      |
| Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....   | 1222 |
| <b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>   |      |
| Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....  | 1228 |
| <b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>   |      |
| Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....   | 1232 |
| <b>Rahmanov Ilxom Xurramovich</b>   |      |
| Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....  | 1238 |
| <b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>  |      |
| Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....  | 1242 |
| <b>Рафиева Зарина Хусановна</b>   |      |
| Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....                              | 1246 |
| <b>Akhmedov Doniyorbek</b>  |      |
| O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....   | 1250 |
| <b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>  |      |
| The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....  | 1254 |
| <b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>  |      |
| Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....  | 1261 |
| <b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>  |      |
| Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....  | 1266 |
| <b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>   |      |
| Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....   | 1272 |
| <b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>  |      |
| Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....  | 1277 |
| <b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>  |      |
| Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....                                     | 1282 |
| <b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>  |      |
| Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....                              | 1286 |
| <b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>   |      |
| Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....  | 1294 |
| <b>Мансурова Севара Мансуровна</b>  |      |
| Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....  | 1297 |
| <b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>   |      |



# O'ZBEKISTONNING MEHNAT MIGRATSIYASIDAGI HAMKORLIGI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR (QOZOG'ISTON VA ROSSIYA MISOLIDA)

**Azamatova Gulmira Bayirbekovna**

Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiyasi bo'yicha Qozog'iston va Rossiya bilan hamkorligi, mehnat migratsiyasida migrantlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** migratsiya, mehnat migrantlari, mehnat migratsiyasi, ichki migratsiya, Rossiya, Qozog'iston.

**Abstract:** This article describes the cooperation of the Republic of Uzbekistan with Kazakhstan and Russia on external labor migration, the issues of ensuring the rights and legal interests of migrants in labor migration.

**Key words:** migration, labor migrants, labor migration, internal migration, Russia, Kazakhstan.

**Аннотация:** В данной статье описано сотрудничество Республики Узбекистан с Казахстаном и Россией по внешней трудовой миграции, вопросы обеспечения прав и законных интересов мигрантов в трудовой миграции.

**Ключевые слова:** миграция, трудовые мигранты, трудовая миграция, внутренняя миграция, Россия, Казахстан.

Xorijiy mamlakatlarda migratsiya jarayonlarini davlat tomonidan boshqarishning muhim jihati milliy migratsiya siyosatini shakllantirish va davlatdagi iqtisodiy holatni ko'rsatuvchi huquqiy tartiblarni qo'llashdan iborat. Jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lgan xalqaro mehnat migratsiyasida O'zbekiston Respublikasi ishchi kuchi yuboruvchi davlat sifatida faol ishtirok etmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda kechgan etnik migratsiya jarayonlari, ya'ni 45-47% ruslar, 16-17% tatarlar, 5-6% ukrainlar, 5-9% yevreylar, 2-3% nemislardan iborat etnik guruhlarining emigratsiyasi kuzatildi. Shuningdek, o'tish davridagi iqtisodiy qiyinchiliklardan kelib chiqib, o'zbeklar o'rtasida ham mehnat emigratsiyasi faollasha boshladi. Bu davrga kelib, mehnat migratsiyasi jarayonlarining faollashishi tufayli O'zbekiston Respublikasidan 1 millionga yaqin kishi aynan mehnat migratsiyasi jarayonlarida ishtirok etgan bo'lib, ularning ayniqsa, MDH mamlakatlari doirasidagi harakati faol xususiyat kasb etdi <sup>[1]</sup>.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida mehnat migratsiyasidagi hamkori Qozog'iston Respublikasi hisoblanadi. Keyingi yillarda ham O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik aloqalari respublika iqtisodiyoti va migratsiya siyosatiga yangicha sur'at bag'ishladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev bu xususda quyidagilarni ta'kidlagan edi: "... aholimizning soni va tarkibini hisobga olib, aholi bandligi muammosiga doir tizimli ishlarni davom ettirishimiz zarur" <sup>[2]</sup>. Haqiqatdan ham, respublikada mehnat resurslarining yil sayin o'sib borishi ish bilan ta'minlash borasida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarib, mehnat resurslari tashqi migratsiyasini kuchaytirdi. Chunki yaqin qo'shni davlatga o'tib ishlash ko'pchilik uchun ichki migratsiya singari qabul qilindi. Tildagi va urf-odatlardagi uyg'unlik, hududiy yaqinlik, qarindoshlik rishtalarining mavjudligi va Qozog'iston iqtisodining ko'p yillar davomida jadal rivojlanganligi bu davlatga yo'l oluvchi migrantlar sonining ham ortib borishiga sabab bo'ldi.

1994-yil 15-aprelda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida imzolangan Mehnat migratsiyasi va mehnat-kash-migrantlarning ijtimoiy himoyasi bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Bitimda belgilagan prinsiplarga asoslanib, Qozog'iston Respublikasidagi O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bo'lgan mehnat migrantlar va O'zbekiston Respublikasidagi Qozog'iston Respublikasining fuqarolari bo'lgan mehnat migrantlarining mehnat faoliyati hamda ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha 18 ta moddadan iborat bitim tuzildi.

Mazkur bitimning 7-moddasi bilan mehnat migrantlarni qabul qiluvchi davlat hududiga kirishi, shuningdek, qabul qiluvchi davlat hududidan chiqishi va u yerda bo'lib turishi qabul qiluvchi davlatning qonunchiligi va tomonlar davlatlari ishtirokchi hisoblangan xalqaro shartnomalarga muvofiq amalga oshirilishi belgilab qo'yildi <sup>[3]</sup>.



1997–2006-yillar oralig'ida ikki davlat o'rtasidagi mehnat migratsiyasi jarayonlari o'ta faollashgan bo'lsa-da<sup>[4]</sup>, Ammo so'nggi yillarda bu yo'nalishdagi migrantlar soni pasaya boshladi<sup>[5]</sup>. Avvaliga Qozog'istonda paxta terimi mavsumi vaqtida yaxshi haq to'lanar ekan, degan maqsadda Farg'ona vodiysidagi ayollar sentabr va oktabr oylarida qo'shni Qozog'iston Respublikasining Yettisoy, Maqtaaral, Turkiston kabi paxta yetishtiriladigan tumanlariga ba'zan alohida, ba'zan oilaviy, to'g'rirog'i yuqori sinflarda o'qiydigan qizlari bilan yollanib ishga keta boshladilar. Natijada, aksariyat xotin-qizlar odam savdosi qurboni bo'ldilar. Bu esa o'z navbatida ko'plab oilalarning buzilishiga sabab bo'ldi. Bunday holatlar ham Qozog'istonda mehnat migrantlarining soni pasayib borishining sabablaridan biri bo'ldi.

2021-yil 4-aprelda O'zbekiston Respublikasining Hukumati va Qozog'iston Respublikasi hukumati o'rtasida bitim imzolandi.

O'zbekistonliklarning MDH davlatlariga migratsiyasi o'tgan asrning 90-yillarida boshlangan bo'lsa-da, 2000-yillarda bu jarayon yanada faollashdi. O'tgan yillar davomida Markaziy Osiyo davlatlari aholisining tashqi migratsiyasida MDH davlatlari, xususan, Qozog'iston bilan bir qatorda Rossiya Federatsiyasi hududiga mehnat migratsiyasi kengayib borganligini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekistonning MDH mintaqasidagi yana bir muhim va asosiy hamkori Rossiya Federatsiyasi bilan 1996-2001-yillar davomida Rossiya Federatsiyasidagi siyosiy vaziyatning barqarorligi, mehnat migrantlari uchun qat'iy cheklovlar belgilanmaganligi, mamlakatdagi iqtisodiy o'sish natijasida aholi turmush farovonligining o'sishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi kabi omillar migrantlarini Rossiya tomon yo'naltirdi. Bu mamlakatdagi mehnat resurslariga bo'lgan yuqori talab va nisbatan yuqori maosh olish imkoniyati, tarixiy omillar, ruhan yaqinlik va til muammosining yo'qligi, davlatlararo barqaror aloqalar buning asosiy omillari sanaldi. Ayni shu vaqtga kelib boshqa millat vakillari bilan bir qatorda mahalliy aholi, ya'ni o'zbeklarning mehnat migratsiyasidagi ishtiroki boshlandi. Bu esa, mamlakatda tashqi mehnat migratsiyasi eng kuchli migratsiya oqimi bo'lib kelayotganligini ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi hamda Rossiya Federatsiyasi ishchi kuchining harakatlanishini tartibga solish bo'yicha bir qator hukumatlararo bitimlarga amal qilindi. 2004-yilda Krasnoyarsk viloyatida o'zbekistonlik migrantlarning ijtimoiy-huquqiy adaptatsiyasiga ko'mak beruvchi TMMA qoshidagi mintaqaviy byuroning vakilligi – "Sodrujestvo uzbekistansov" nomli kengash faoliyati tashkil etildi. Migratsiya bo'yicha o'zaro hamkorlikni tartibga solishda ikki davlat o'rtasida 2007-yil 4-iyulda "O'zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasidagi mehnatkash-migrant fuqarolarning va Rossiya Federatsiyasining O'zbekiston Respublikasidagi mehnatkash-migrant fuqarolarining mehnat faoliyatlari va huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Kelishuvi imzolandi. Mazkur Bitim o'zbekistonlik mehnat migrantlarining rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tish va o'z huquqlarini talab qilishda ahamiyatli bo'lib, ularning ish beruvchilar bilan mehnat shartnomasi tuzgan holdagina mehnat faoliyatini amalga oshirishlari mumkinligi belgilab qo'yildi. Shuningdek, noqonuniy migrantlarni deportatsiya qilish, noqonuniy migratsiyaning oldini olish va mehnat migrantlarining haq-huquqlarini himoya qilish kabi masalalar bo'yicha ham ikki davlat o'rtasida yangi kelishuvlar imzolandi<sup>[6]</sup>.

2007-yilda Rossiyadagi o'zbekistonlik mehnat migrantlarining soni 660 ming kishiga yetgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2011-yilda 877 ming nafar kishini tashkil etdi<sup>[7]</sup>.

2008-yilda Ryazan va Samara viloyatlarida O'zbekiston fuqarolarini mehnat shartnomasi asosida ishlash uchun uyushtirilgan holda yuborish yo'lga qo'yildi. 2013-yilda migrantlarni qisqa muddatli kasbiy tayyorgarlikka tayyorlash amaliyoti tashkil etildi. 2015-yil 1-yanvardan Rossiya immigratsiya qonunchiligining keskinlashuvi, mehnat migrantlariga qattiq talablarning qo'yilishi, ya'ni mehnat migrantlarining mehnat qilishi uchun patentga ega bo'lishi, shuningdek, rus tili, Rossiyaning davlat qonunchiligi va tarixini bilishi, har xil yuqumli kasalliklar bilan kasallanmagan bo'lishi bilan birgalikda tibbiy sug'urtaga ega bo'lishi, daromaddan olinadigan soliqning qat'iy belgilangan avans to'lovini amalga oshirishi lozimligi belgilab qo'yilgan talablar Rossiyadagi o'zbekistonlik mehnat migrantlarining sonini birmuncha qisqarishiga va ko'pchilikning noqonuniy (nolegal) maqomga tushib qolishiga sabab bo'ldi. Rossiyaning Federal migratsiya xizmati (FMS) ma'lumotiga ko'ra, 2016-yili Rossiyada Markaziy Osiyo davlatlaridan 3 million 850 mingta mehnat migranti qayd etilgan. Bundan deyarli yarmi–aniqrog'i 1 million 800 mingga yaqini o'zbekistonliklardan iborat bo'lgan<sup>[8]</sup>.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichidagi barqaror iqtisodiy o'sish tendensiyalarining kuzatilishi, tadbirkorlik faoliyatining qo'llab-quvvatlanishi natijasidagi o'sish ko'rsatkichlari, yangi ish o'rinlarining yaratilishi kabi omillar ham bu jarayonga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ma'lumotlarga ko'ra, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi hamda uning xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarini orqali xorijda ishlayotgan 105 ming 187 nafar mehnat migrantiga huquqiy, moddiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilib, 348,1 ming AQSH dollari miqdoridagi ish haqlari undirib berildi. Shuningdek, 651 nafar mehnat migrantiga "birgamiz.com" portali orqali agentlik tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan bir martalik moddiy, 459 nafariga oziq-ovqat hamda naqd pul ko'rinishida yordam ko'rsatildi. Boshpanasiz qolgan 81 nafar mehnat migranti xostellarga joylashtirilib, 55 nafar og'ir vaziyatga tushib qolgan, 34 nafar Rossiya Federatsiyasi IIB vaqtinchalik saqlash markazlarida saqlanayotgan mehnat migrantlari va 120 nafarga yaqin vafot etgan fuqarolarning jasadlari yurtimizga qaytarib olib kelindi<sup>[9]</sup>.

2016-yil oxirida O'zbekistonda ro'y bergan siyosiy o'zgarishlar bilan Hukumat tomonidan Prezident Sh. M. Mirziyoyev boshchiligidagi mamlakatdagi migratsiya siyosatini har taraflama qo'llab-quvvatlashni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi.



2017-yil 21-dekabr kuni “Rossiya Federatsiyasi hududida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini tashkiliy asosda qabul qilish va jalb etish to‘g‘risida”gi hukumatlararo Bitim <sup>[10]</sup> imzolandi. Bitimga ko‘ra, mehnat migrantlariga mehnat qilishi va yashashi uchun qulay sharoitlarni yaratish, tibbiy, ijtimoiy sug‘urta, pensiya ta‘minoti bilan ta‘minlashda huquqiy kafolatlangan tartibni joriy etish tizimi yaratildi. 2017-yildan ikki davlat mehnat vazirlari boshchiligidagi O‘zbekiston – Rossiya ishchi guruhi faoliyat yuritdi. Shuningdek, Rossiyaga yo‘l olayotgan mehnat migrantlari rus tili bo‘yicha imtihonni va sug‘urta to‘lovlarni ilgari gidek bevosita Rossiyada emas, balki O‘zbekistonda amalga oshirishi belgilab qo‘yildi. O‘zbekiston Rossiyada mehnat migrantlariga patent rasmiylashtirish jarayonida kerakli bo‘lgan rus tili bo‘yicha sertifikat olish va sug‘urta to‘lovi bo‘yicha barcha masalalarni hal qildi. O‘zbekiston Respublikasida berilgan tibbiy hujjatlarni Rossiyada amal qilishini ta‘minlash yuzasidan bir qator vazifalar belgilandi. Bundan tashqari, respublika bo‘ylab mehnat migrantlari uchun rus, ingliz, nemis, koreys tillarini o‘rganish hamda kerakli bo‘lgan kasblar: payvandchi, quruvchi bo‘yicha bepul o‘quv kurslar ochildi. O‘quv kurslari aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalari uchun bepul tashkil qilindi. Shuningdek, rag‘batlantirish tizimi ham bo‘lib, agar ikki oylik o‘quv kursi yakunida o‘quvchi yaxshi natijalarni ko‘rsatsa, u uchinchi oyga ham qolishi belgilab qo‘yildi <sup>[11]</sup>. Bu imkoniyatlar Rossiyaga mehnat migrantlari oqimini yanada kengaytirdi.

2017-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ish topish ilinjida 1 mln. 630 mingdan ortiq fuqarolar mamlakatni tark etgan. Ulardan 1 millionga yaqini, ya‘ni 944 ming 328 kishi Rossiya Federatsiyasiga, 626 ming 791 kishi Qozog‘iston Respublikasiga, qolganlari Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarga chiqib ketgan <sup>[12]</sup>.

2018-2020-yillar davomida Rossiya Federatsiyasida mehnat faoliyatini olib boruvchilar ko‘rsatkichi 2019-yilga nisbatdan 2020-yilda 4,5 foizga ko‘payganligi bilan deyarli saqlab qolindi. Bu so‘nggi o‘rganilgan ma‘lumotlarga asosan jami migrantlarning  $\frac{3}{4}$  qismiga to‘g‘ri keldi. Bunga asosiy sabab COVID-19 pandemiyasi sharoitida aholini ish bilan bandligini ta‘minlashda Hukumat tomonidan kechiktirib bo‘lmas chora-tadbirlarini ishlab chiqish qatorida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan asosiy donor davlatlarning tashqi mehnat bozorida ehtiyojini qondirish bo‘yicha hamkorlikda olib borilgan amaliy ishlar natijalarining ta‘siri kuzatildi. 2020-yilda dunyo bo‘yicha 272 million migrantlarning 164 millioni, ya‘ni 60,3 foizini—mehnat migrantlari, 61,8 foizini ayollar va bolalar, qochoqlar esa 9,5 foizni, 15,1 foizini ichki migratsiya tashkil etdi <sup>[13]</sup>.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasining 2021-yil 26-mayda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida 2021-yilning may oyi holatiga ko‘ra, 1,7 million o‘zbekistonlik chet elda, asosan Rossiya va Qozog‘istonda mehnat qilgan.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining axborot hisobotida “mamlakat aholisining 55 foizdan ortig‘i yoshlardan iborat ekanligi, har yili mehnat bozoriga 600 mingga yaqin ishchi kuchi kirib kelayotgani mazkur muammoning naqadar muhimligi” ta‘kidlandi. 2021-yil 21-mayda Oliy Yevrosiyo iqtisodiy kengashining yig‘ilishida migrantlar masalasiga alohida urg‘u berildi, shu kuni Rossiya Federatsiyasida “O‘zbekiston fuqarolarining Rossiyadagi huquqlari: mehnat migrantlari va ularning oila a‘zolari” mavzusida o‘tkazilgan O‘zbekiston-Rossiya forumi ham migratsiya masalasining mintaqadagi ahamiyatini belgilab berishi ta‘kidlandi <sup>[14]</sup>. Yig‘ilishda ta‘kidlanishicha, O‘zbekiston EOIIga a‘zo davlatlar ichida mehnat resurslari bo‘yicha Rossiyadan keyingi o‘rinda turadi. Rossiyadagi mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan xorijiy fuqarolar soni bo‘yicha esa O‘zbekiston birinchi o‘rinda turadi <sup>[15]</sup>. O‘zbekistondan Rossiyaga yo‘nalgan migratsiya oqimining o‘ziga xos jihati shundaki, bu yo‘nalishdagi migrantlarning ko‘pchiligi nomutaxassislar, ya‘ni o‘z sohasida ishlamaydigan, murakkab bo‘lmagan, kam haq to‘lanuvchi har qanday ishni qilib ketaveradiganlar, odatda qurilishda ishlaydiganlardan iborat. Lekin oxirgi yillar tendensiyasiga e‘tibor qilinadigan bo‘lsa, Rossiyaga yo‘l olgan yoki muntazam borib kelayotgan ishchilarning malakasi oshib bormoqda va ular endi tobora ko‘proq haq to‘lanuvchi va nufuzliroq ish o‘rinlarini ham egallashmoqda. Hozirda taksi haydovchilari, do‘konlardagi sotuvchilar, turli-tuman jihozlar ustalari, mehmonxona xizmatchilari, oshxona va restoranlarda ishlovchi o‘zbeklar soni ortgan. Rossiya migrantlarga mehnat qilish huquqini berishda talab qilinuvchi hujjatlarni keskin ko‘paytirishi natijasida o‘zbek migrantlari boshqa yo‘nalishlarni tanlay boshladilar. O‘zbekistonlik migrantlar eng ko‘p yo‘l oluvchi davlatlar beshligi: Rossiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, Turkiya va AQSH hisoblanadi <sup>[16]</sup>.

Jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning globallashuvi milliy chegaralarning yuvilishi, ichki va tashqi siyosat o‘rtasidagi farqlarning kamayishi, xalqaro munosabatlarda yangi ishtirokchilarning paydo bo‘lishi, yagona ijtimoiy-siyosiy makonning shakllanishi bilan bir vaqtda xalqaro migratsiya jarayonlariga salbiy ta‘sir o‘tkazmoqda. Uning salbiy oqibatlarini yumshatish va davlatlararo munosabatlar tizimini yangicha sharoitlarni hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xalqaro migrantlarning hayotiy imkoniyatlarini, istiqboldagi rejalarini tuzishga intilishi, ijtimoiy shart-sharoitlarning zamonaviy tizimlariga yo‘l topa olish, xususan, aniq ma‘lumot olishga harakat qilishi hozirgi zamon migratsiyasining asosiy xususiyatlaridan biridir. Shu sababli xalqaro maydonda mehnat migratsiyasini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tartibga solish, mehnat migrantlarining huquqiy va ijtimoiy holatini doimiy ravishda monitoring qilish, ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlarning sifatini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qodirova Z. O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorligi // Iqtisodiyotda innovatsiya jurnali. 2018, № 3. – B. 14.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B. 64.
3. O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Qozog'iston Respublikasi hukumati o'rtasida bitim. <https://lex.uz/docs/5373771>.
4. Qodirova Z. O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorligi // Iqtisodiyotda innovatsiya jurnali. 2018, – № 3. – B. 14.
5. Rossiya va boshqalar: o'zbek muhojirlari yo'l olayotgan beshta asosiy manzil // <https://kun.uz/68261644>. Murojaat sanasi:18-sentabr 2020-yil.
6. Qodirova Z. O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorligi // Iqtisodiyotda innovatsiya jurnali. 2018, № 3. – B. 14.
7. Qodirova Z. O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorligi // Iqtisodiyotda innovatsiya jurnali. 2018, № 3. – B. 18.
8. [file:///C:/Users/hp/AppData/Local/Temp/Rar\\$DIa0.805/](file:///C:/Users/hp/AppData/Local/Temp/Rar$DIa0.805/) Yigirma birinchi asr migratsiya asri yoki insonlardan iborat ummonlar//Azon.uz Axborot-tahliliy portal.mht. Murojaat sanasi:18-sentabr 2020-yil.
9. Eshmatova F. Mamlakat fuqarolarining huquqlari xorijda ham birdek himoya qilinishi lozim // Xalq so'zi, 2021-yil 2-iyun, – № 115 (7895). – B. 3. <https://lex.uz/docs/-3475789>.
10. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistondan-rossiya-boruvchi-migrantlar-uchun-patent-olish-yanada-soddalashtirildi>. Murojaat sanasi:18-yanvar 2020-yil.
12. Mehnat migratsiyasi tizimidagi vazifalarning amaliy yechimi // Xalq so'zi, 2018-yil 7-iyul, –№ 138 (7096), – B. 2.
13. World migration report 2020 // © 2019 International Organization for Migration (IOM) // [https://file:///C:/Users/DR/Downloads/wmr\\_2020.pdf](https://file:///C:/Users/DR/Downloads/wmr_2020.pdf).
14. Karimova M. Mehnat muhojirlarining huquqiy maqomi va ijtimoiy himoyasi – muhokamar markazida // Xalq so'zi. 2021-yil 27-may.
15. 1,7 mln o'zbekistonliklar xorijda ishlaydi, ularning asosiy qismi Rossiya va Qozog'istonda // <https://www.gazeta.uz/uz/2021/05/28/immigrant>. Murojaat sanasi:17-iyul 2021-yil.
16. O'zbekistonliklar Rossiya va AQSh dan tashqari yana qayerlarni“zabt etishgan”? [https:// kun.uz/28586311](https://kun.uz/28586311). Murojaat sanasi:28-dekabr 2019-yil.
17. Azamatova G. Illegal Migration And Human Trafficking //Journal of Contemporary Issues in Business and Government| Vol. – 2021. –T. 27. – №. 2. – S. 3542.
18. Azamatova G. B. O'zbekiston Respublikasining rossiya federatsiyasi bilan migratsiya sohasidagi hamkorligi //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2020. – №. SI-1№ 1.
19. Azamatova G. B. The Republic Of Uzbekistan And South Korea: Mutually Beneficial Cooperation In The Field Of Labor Migration //International Scientific and Current Research Conferences. – 2022. – S. 60-65.
20. Azamatova G. B. Some Considerations On The Migration Movements Of The Population Of Jizzah Region And Its Periodic Change //International Journal Of History And Political Sciences. – 2022. –T. 2. – №. 12. –S. 09-13.
21. Azamatova G. B. The Movement Of Women In Population Migration: Problems And Sotution //O'tmishga nazar jurnali. – 2019. – T. 23. –№. 2.
22. Azamatova G. B. O'zbekistonda aholi migratsiyasi harakatlari masalalari va migrantlar faoliyati tahlili //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2021. – №. SI-3.
23. Azamatova G. Globallashuv jarayonida inson kapitali va intellektual migratsiya //Znachenie sifrovых технологий v izuchenii istorii Uzbekistana. – 2022. –T. 1. – №. 01. –S. 412-415.
24. Bayirbekovna A. G. Ayollar mehnat migratsiyasining yo'nalishlari va rivojlanish omillari //Research Focus International Scientific Journal. – 2023. –T. 2. – №. 5. –S. 48-52.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.